

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo‘javeva N N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - Toshkent, TDPU, 2003.-174 b.
2. Axmedjanov M.M. va boshq. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2008. 229 b.
3. S.A.Madiyarova va boshq. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T: “Iqtisod-moliya”, 2009.
4. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma – T.: “Iqtisod-moliya”, 2010y.
5. Muxamedov G., Xodjamqulov U. Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri: ta’rif, tavsif, tasnif. – Chirchiq., 2019y.

Innovatsion muhitda ta’lim,tarbiya nazariyasi

va metodikasi.

Nishonova Durdona Olimjon qizi

Abdulla Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti

1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovatsion ta'lim muhiti sharoitida ta'lim va tarbiya jarayonlarini takomillashtirishga bag'ishlangan metodlar hamda zamonaviy ta'lim tizimining asosiy tamoyillari, yangi texnologiyalarni qo'llash, ta'lim va tarbiya nazariyasining dolzarb muammolari, shuningdek, innovatsion ta'lim metodlarini amalga oshirishning amaliy jihatlari batafsil ko'rib chiqiladi.

Аннотация: в данной статье рассмотрены методы, посвященные совершенствованию процессов образования и обучения в условиях инновационной образовательной среды, а также основные принципы современной системы образования, использование новых технологий, актуальные проблемы теории образования. и обучение, а также

инновационное образование. Подробно рассмотрены практические аспекты реализации методов.

Annotation: in this article, methods dedicated to improving the processes of education and training in the conditions of an innovative educational environment, as well as the main principles of the modern education system, the use of new technologies, current problems of the theory of education and training, as well as innovative education Practical aspects of the implementation of lim methods are considered in detail.

Kalit so‘zlar: Innovatsiya, metod, texnologiya, ta’lim, tarbiya, nazariya, pedagogika, zamonaviy ta’lim, integratsiya, hamkorlik.

KIRISH. Hozirgi kunda zamonaviy ta’lim tizimi har bir maktablarda eng asosiy omil bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Nafaqat o‘qituvchilar uchun balki, o‘quvchilar uchun ham, ularning shaxsiy rivojlanishi, o‘zida mujassam bo‘lgan qobiliyatlarini, iste’dodlarini, ko‘proq qiziqish bildirayotgan sohalarini to‘liq ochib berishga qaratilayapti. Bu tizim ko‘plab yutuqlarga erishishni ko‘zda tutilgan tizim hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim tizimi bir qator tamoyillarga asoslanadi.

Bulardan biri, bu darslarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Darslikni faqat kitoblar va qo‘llanmalar orqali emas balki, hozirgi kunda zamonaviylashib kelayotgan, texnologiyalardan foydalangan holda olib borsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bugungi kunda sun’iy intellect keng qamrovli darajada rivojlanib kelmoqda. Buning talabgorlari ham kundan kunga soni ortib bormoqda. Har qanday tashkilot yoki muassasa bo‘lsin o‘zining ravnaqi yo‘lida sun’iy intellektdan unumli foydalanmoqda. Baholashning yangi tizimlarini ishlab chiqish ham yana bir muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi. O‘quvchilarni yangi bir metod va usullar bilan hayratlantirish kerak. Ular doimiy metodlardan zerikkan va yangicha uslubda baholanishga tayyor. Shuning uchun hozirgi zamon talabiga mos va hos bo‘lgan usullar orqali baholansa o‘quvchining qiziqishi ortib o‘zlashtirish ko‘rsatkichi oshib boraveradi.

Yana bir muhim omillaridan biri bu ta'lim jarayoniga barcha ishtirokchilarni jalb qilish. Ta'lim jarayonida faqatgina o'qituvchi emas balki o'quvchilar va ularning ota-onalari ham ishtirok etishsa bu jarayon juda jaddallashib boraveradi. Darsning tuzilishida o'qituvchi qanchalik o'z kasbini sevib, o'zini ustida ko'p ishlasa dars to'g'ri tashkil qilinsa sinfdagi barchaga birdek manfaatli bo'ladi. Shu darsda o'quvchilarning to'liq qatnashishi esa bu ota-onalarga bog'liq. Sababi, farzandlarini sog'lig'iga e'tibor qaratgan ota-onalar doimiy tarzda oilaviy sharoitini sog'lom muhitga aylantirib, farzandi ilm olish uchun sog'lom hayot tarzi yaratib beradi. Chunki ota-onalar har kuni farzandlariga darslarini o'zlashtirishi uchun imkoniyat qilib beradigan shaxslardir. Ota-ona doim farzandi uchun mas'uldir. Ta'lim tarbiya jarayonida oilaviy muhit yuqori ko'rsatkichda ta'sir qiladigan jarayondir.

Innovatsion ta'lim muhiti ta'lim jarayonini to'liq qayta ko'rib chiqish va yangi texnologiyalarni o'quv jarayoniga faol integratsiya qilish imkoniyatini beradi. Yana bir omillardan biri demak, o'quv jarayonida o'quvchilarning boshqa fanlar bilan integratsiya qilishidir. Dars mazmunini va mohiyatini yanada chuqurroq ochib berish imkoniyatini yaratadi. Hammamizga ma'lumki, boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan darslar qiziqroq va mazmun jihatdan ko'proq ma'lumotga boy bo'ladi. O'quvchilar uchun esa bu juda yaxshi natija beradi. Ular bir fan ma'lumotlari bilan chegaralanib qolmay balki, boshqa bir fan ma'lumotlarini ham o'zlashtirib olishadi. Mustahkamlab boshlagan bilimlari uzoq muddatda yodda qolib, esda saqlash ko'nikmalari ham rivojlanadi. Bir mavzu yuzasidan fikr yuritar ekan, doimiy moslashtirish va solishtirish uchun yetarlicha ma'lumotga ega bo'lib borishadi. Integratsiyalashgan darslar doim o'z samarasini berib kelmoqda. Shunday ekan, darslarni bunday tashkil qilish ham o'qituvchi ham o'quvchi uchun samarali natija beradi. Bu muhit quyidagi imkoniyatlarni ham ochib beradi|:

- O'quvchilarning mustaqil o'rganishini kengaytirish
- Individual o'rganish ehtiyojlarini qondirish
- O'quv jarayoniga interaktiv texnologiyalarni joriy etish

- O'qituvchilarning professional rivojlanishini tezlashtirish
- Globallashuv va ma'lumotlarni tez o'zgarishiga moslashish.

Innovatsion ta'lim metodlarining asosiy maqsadi o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish va o'z o'zini o'rganish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Bu kabi jarayonlar amaliy faoliyatga yo'naltirilganlik, guruhda ishlash va hamkorlik, muommoli vaziyatarni yaratish, o'quvchilarga tanlov erkinligini berish kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Innovatsion ta'lim metodlarini amaliyotga tadbiiq etishda bir necha bosqichlarni amalga oshirish kerak bo'ladi. Birinchidan, o'quvchilarning ehtiyojlarini o'rganish.

Bugungi kunda yosh avlod juda bilimli, salohiyatli va shu bilan birga qiziqishlari ham ortib kelayotgan avloddir. Chunki hozirgi zamonaviy texnologiyalar asrida yashar ekanmiz, har bir inson foydalanayotgan elektron qurilmalar hammani o'ziga birdek qamrab olmoqda. Shu sababli, qiziqishlar va xoxishlar tobora ortib bormoqda. Ikkinchidan, o'quvchilarni ko'proq amaliy faoliyatga yo'naltirish.

Bu borada har bir o'quvchi o'zi qiziqqan kasbi doirasida, amaliy mashg'ulotlar bilan jalb qilinishi kerak bo'ladi. Uchinchidan, o'quvchilarni individual ehtiyojlarini qondirish. To'rtinchidan, ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish.

Tarbiya ta'lim berish bilan mustahkam aloqada bo'lgan holda o'ziga xos qonuniyatlarga ham egadir. Ta'lim va tarbiya yagona jarayondir. Lekin ular bir biriga aynan o'xshash emas. Ta'lim va tarbiyaning birliligi, avvalo, ular maqadining umumiyligidan iboratdir. Bir butun pedagogik jarayonda ta'lim doimo tarbiyaviy vazifalarni, tarbiya esa hayotni bilish, unga tayyorlanishdek mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyaning vazifalari ko'pqirralidir. Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchilarni bilimlar bilan qurollantirish bo'lsa, tarbiyada o'quvchining jamiyatimizda qabul qilingan axloq-odob qoidalariga mos keladigan e'tiqodini, axloqiy malaka va ko'nikmalarini, ehtiyoj va intilishlarini tarkib toptirish muhimdir.

Bolalarni tarbiyalash ular tug'ilgan vaqtidan boshlab rivojlanadi va muntazam ravishda ta'lim berish bilan birga olib boriladi. Bolalar maktabga borganidan keyin bu jarayon davom ettiriladi. Maktabdagi tarbiya inson shaxsini tarkib toptirish yuzasidan rejalashtiriladigan ulkan ishning bir qismidir. Tarbiya o'quvchi maktabni tarbiyalaganidan keyin ham tugallanmaydi, balki muntazam davom ettiriladi.

Tarbiyashunos olim Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yohud axloq "asarida tarbiyaning ro'lini alohida ta'kidlab shunday degandi:"Janobi haq insonlarning asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli,yaxshui ila yommoni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan. Lekin insondagi qobiliyatni komolga yetkazmoq tarbiya vositasida bo'ladir. Tarbiya qiluvchilar tabib kabidurki,tabib xastaning kasaliga davo qilgani kabi,tarbiyani bolaning vujudidagi jaxl maraziga yaxshi xulq degan davoni ichidan, poklik degan davoni ustidan berib, katta qilmog'i lozimdir. Zeroki, amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmoqqa amr qilganmiz. Lekin xulqimiz yaxshi bo'lishining asl panjasi tarbiyadir. Axloqimiz binosining go'zal va chiroyli bo'lishiga tarbiyaning zo'r ta'siri bordir.

Boshlang'ich sinflarda innovatsion metodlardan foydalanish ta'lim jarayonini qiziqarli, samarali va interaktiv qilishga yordam beradi. Quyida ayrim innovatsion metodlar va ularni qo'llash usullari bilan tanishamiz:

Problemali ta'lim metodlari

Bu metod o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Savol-javob shakli: O'qituvchi muammoni bayon qiladi, o'quvchilar esa javob topadi. Masalan, 4-sinf Tabiiy fanlar darsining, "Kosmosni o'rganish" 4-bo'limidagi, "Quyosh tizimi " haqidagi mavzusida: **"Agar quyosh bo'lmasa, Yer sayyorasida qanday holat yuz beradi?"**shu kabi savollarga ular, hikoya yozish yoki rasm chizish orqali muammoni yechib javob berishlari mumkin.

STEAM yondashuvi.STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Math) orqali bir nechta fanlarni birlashtirish.Masalan,4-sinf tabiiy fanlar darsining, "Suv

va uning xossalari” bo‘limining, “Suvning ajoyib holatlari” mavzusida: **“Suvda qaysi moddalar yaxshi erishi”** modelini yaratish.

Bunda o‘quvchilar amaliy topshiriq sifatida bir necha tajribalarni bajaradilar. Texnik jihozlar va vositalardan foydalanib, oddiy tajribalarni amalga oshirish kabi ishlarni bajaradilar.



Xulosa.

Xulosa qilib aytganda ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodi o‘quv jarayonining muhim asoslarini tushunishga yordam beradi. Ushbu mavzuni chuqur o‘rganish o‘qituvchilarga ham samarali darslar o‘tishga, talabalarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga va ularning shaxsiy rivojlanishiga, ijobiy ta‘sir ko‘rsatishga imkon beradi. Ta‘lim va tarbiya sohasi doimo rivojlanib bormoqda. Zamonaviy dunyoning talablari va texnologiyalari rivojlanishi ta‘lim va tarbiya tizimlariga yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Shu sababli barcha oliy ta‘lim sohasi vakillari uchun doimiy tarzda yangilangan, innovatsion texnologiyalar bilan ishlash talab qilinmoqda. Har bir mavzuni kun yangiliklari bilan boshlash, mavzuni dolzarbliligini aniqlash, o‘quvchilarning qiziqishidan kelib chiqqan holda ularga amaliy topshiriqlar berish, mashg‘ulotlar lagerini tashkillashtirish, zamonaviy metodlardan keng turda foydalanish, o‘quvchilar uchun yangi turdagi

bilim beruvchi qo'llanmalarni ishlab chiqish dars yakuniga qadar, o'quvchilarda tug'ilgan savollar bo'yicha mavzuni muhokama qilish va mavzuga munosabat bildirish kabi jarayonlar bilan o'tkazish talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Pedagogika kasb-hunar kollejlari uchun darslik. R. Mavlonova, O. To'rayeva, „O'qituvchi“ NMIU, 2006, 318-bet.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. „O'qituvchi“. T., 1967, 25-bet.
3. Tabiiy fanlar. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. 4-sinf. V. Kosyanenko. Y. V. Malikova, „Novda“, Toshkent 2023, 20-21 bet.

TA'LIMDA DETERMINIZM TAMOYILLARINING O'RNI

Yaxshiyev Sherali Baxtiyorovich, TVPMM katta o'qituvchisi.

Annotatsiya

Mazkur maqolada determinizm tamoyillaridan kimyo ta'limida olamni ilmiy manzarasini shakllantirish vositasi sifatida foydalanish imkoniyatlari tahliliy bayon etilgan. Unda sabab-oqibat munosabatlari asosida yondashuvning kimyo ta'limidagi imkoniyatlari, turlariga urg'u berilgan. Sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish asosida yondashuv tahliliy, kritik, kreativ fikrlash, ilmiy bashorat qilish qobiliyatlarini shakllantirishga yordam berishi asoslangan.

Kalit so'zlar: determinizm, dialektik munosabatlar, differensial yondashuv, induktiv yondashuv, deduktiv yondashuv, kognitiv kompetensiya, eksperiment.

Determinizm ([lotincha](#): determino - aniqlayman) - barcha hodisalarning o'zaro ob'yektiv qonuniy aloqadorligi va sababiy bog'lanishi to'g'risidagi falsafiy ta'limot bo'lib, uning mazmuni sababiyat tushunchasida ifodalanadi, ya'ni bunda bir hodisa (sabab) muayyan sharoitda zaruriyatni tug'diradi, bu esa boshqa hodisa (oqibat) ni vujudga keltiradi. Sabab-oqibat dialektik munosabatlaridan kimyo ta'limida foydalanish, atom tuzilishining element xossalariga, molekulyar tuzilishning modda xossalariga, sharoitning kimyoviy reaksiya yo'nalishiga, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'zaro aloqadorliklari, ta'sirini izohlash